

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING ILMYI ASOSLANGAN,
SAMARALI MEXANIZMLARINI ISHLAB CHIQISH BO'YICHA OLIB BORILGAN
TADQIQOTLAR. (XORAZM VA NAVOIY VILOYATLARI MISOLIDA)**

Badalova Maqsuda Umarovna

A.Avlonyi nomidagi PKRYMO'MTI
Ilmiy bo'lim mudiri
umaksuda_69@gmail.com
+ 998 90 990 02 80

Eshmuminova Oybarchin Botirovna

A.Авлоний номидаги МТИ магистри
E-mail: eshmuminovaoybarchin@gmail.com
+998909333920


O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasidagi davlat siyosatining mazmuni ta'lif taraqqiyotini eng yuqori bosqichlarga, ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'limi darajasiga ko'tarish, jahon tajribasini o'rganish asosida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Ayniqsa, keyingi vaqtarda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan boshlang'ich sinflar ta'lif sifatiga katta e'tibor qaratilmoqda va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda umumiyligiga o'rta ta'lif muassasalarining 1-4-sinflar uchun yangi zamонавиј darsliklari tayyorlandi. 2023/2024 o'quv yilidan boshlab umumiyligiga o'rta ta'lif muassasalarida 1-sinfdan kompyuter savodxonligi darslari joriy etilmoqda. Albatta bunday amaliy yondoshuvlar ta'lif sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jumladan shuni ta'kidlash joizki, institut xodimlari tomonidan muammolar o'rganilib, ularga yechim topish masalasi aktualligicha qolmoqda. Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida Xorazm va Navoiy viloyatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. O'tkazilgan so'rovnoma ikkala viloyatdan 416 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etishdi.

1-jadval

Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifatini oshirishda qaysi omil teskari ta'sir etmoqda?

434 ответа



Birinchi jadvalda ko'rsatilgan muhim masalalar, ya'ni darsliklarga bog'liq masalalar yechimiga boshlang'ich sinflar uchun yangi ishlab chiqilgan kitoblar majmuasidan javob topish mumkin va xuddi shuningdek o'quvchilarning ko'nikmalarini baholash tajribalari ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan darsliklarda o'z aksini topgan. Viloyatlarda olib borilgan tadqiqotlarda, ya'ni darslarda o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar bilimini baholash masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Respondentlarni javobiga asosan dars jarayonlari boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimini umumiyligi baholashning 5 balli tizimida baholanayotganligi va og'zaki savol-javob, yozma mustaqil ishlar olish orqali umumiyligi qo'yilmoqda. Ayrim boshlashg'ich sinf o'qituvchilari chorak yakunida o'quvchilar bilimini uchinchi tomon, ya'ni maktab rahbariyati tomonidan test olish orqali umumiyligi chorak baholari qo'yilsa, yaxshi bo'lardi, degan taklif bildirganlar. Tadqiqot jarayonida bo'lim tomonidan ishlab chiqilgan boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha o'qituvchilar uchun tayyorlangan uslubiy qo'llanma loyihasi tajriba-sinovdan o'tkazildi. O'quvchilarni bilimlarini baholashga katta e'tibor qaratgan **5-E** modeli o'qituvchilarga tushuntirildi va ular tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Shuningdek, tadqiqot mavzusidan kelib chiqib, taklif qilingan SAM (O'quvchilarning yutuqlari monitoringi) moduli ham, ya'ni mazkur modul psixologik nazariyaga asoslangan bo'lib fan mazmunini o'zlashtirish sifatini diagnostika qilish mexanizmi hisoblanadi. Bu testlardan iborat bo'lib, test nafaqat talabalarning fanga oid kompetensiyalarining miqdoriy tavsifini beradi, balki mazmunli talqin qilingan darajalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu masalalarni o'rganish bo'yicha So'rovnoma ishtirok etgan qariyib hamma respondentlarning fikri bir – biriga mos tushadi, ya'ni **61%** boshlang'ich sinflarda o'qitishda muammolar mavjud fan sifatida SCIENCE fanini ko'rsatib o'tishgan. Shuningdek,

respondentlarning **40%**i o'quvchilarning bilimlarini baholashda og'zaki savol-javob metodidan, **60%**i yozma mustaqil ish metodidan foydalanishlarini keltirib o'tishgan va boshlang'ich ta'lim sifatini baholash bo'yicha hech qanday mexanizm va baholovchi testlar tizimi yo'q ekanligi o'qituvchilar faqat joriy baholar natijasida yakuniy natija belgilanishi aniqlandi va bu biz tanlagan mavzu juda muhim ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijasida bildirilgan takliflar:

- O'quvchilarni **rag'bat kartochkalarini** bilan rag'batlantirish;
- O'quvchilarning bilimlarini **test orqali** baholash;
- Joriy baholar o'rniiga "**Yashil**", "**Sariq**", "**Qizil**" baholash usulini joriy qilish;
- Har chorak yakunida maktab rahbariyati tomonidan **nazorat ishlari** olish;
- SAM (O'quvchilarning yutuqlari monitoringi) modulini joriy etish mexanizmini qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR